

UZBEK LAW REVIEW



VOLUME 1
2025

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИ
ТАҲЛИЛИ**

UZBEKISTAN LAW REVIEW

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ	SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL	НАУЧНО АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
--------------------------------------	--	--

**2025
№1**

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

БОШ МУҲАРРИР:

Гулямов Саид Саидахарович – юридик фанлари доктори, профессор.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

Рустамбеков Исламбек Рустамбекович – ю.ф.д., профессор.

Хужаев Шохжон Акмалжон ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори.

Оқюлов Омонбой – ю.ф.д., профессор.

Эргашев Восит Ёқубович – ю.ф.н., профессор.

Махкамов Отабек Мухтарович – ю.ф.д.

Суюнова Дилбар Жолдасбаевна – ю.ф.д., доц.

Мусаев Бекзод Турсунбоевич – ю.ф.д., доц.

Беков Ихтиёр – ю.ф.д., проф.

Бозоров Сардор Сохибжонович – ю.ф.д., проф. в.б.

Хазраткулов Одилбек Турсунович – юридик фанлари номзоди, доцент.

Самарходжаев Ботир Билялович – ю.ф.д., профессор.

Ходжаев Бахшилло Камалович – ю.ф.д., профессор.

Нарзиёв Отабек Саъдиевич – ю.ф.д., проф. в.б.

Жолдасова Шахноза Батировна – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори.

Маълумот олиш учун қуйидагиларга мурожаат этиш сўралади:

**Гулямов Саид Саидахарович,
Рустамбеков Исламбек Рустамбекович**
ТДЮУ, Халқаро хусусий ҳуқуқ кафедраси,
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,
Сайилгоҳ кўчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон
нускаси Интернетдаги www.library-tsul.uz ёки
www.lawreview.uz сайтида жойлаштирилган.

**Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси
Вазирлар Маҳкамасининг Олий Аттестация
комиссияси журналлари рўйхатига киритилган.**

Ушбу журналда баён этилган натижалар, хулосалар, талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб, Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик университети сиёсати ёки фикрини акс эттирмайди.

2025 йилда нашр этилди.

Муаллифлик ҳуқуқлари Тошкент давлат юридик университетига тегишли. Барча ҳуқуқлар ҳимояланган. Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва кўпайтириш Тошкент давлат юридик университети рухсати билан амалга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент давлат юридик университетига мурожаат этилади. Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ кўчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: **И. Рустамбеков**
Наشريёт муҳаррири: **Н. Ниязова**
Техник муҳаррир: **Д. Козимов**
Лицензия № 02-0074

Босишга рухсат этилди – 28.03.2025

Наشريёт ҳисоб табағи – 5

«IMPRESS MEDIA» босмахонасида босилди
Адади – 100 нуска.

ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ
ЖУРНАЛ

1/2025

Xushnazarov Asliddin Saloxiddin o'g'li

Adliya vazirligi mas'ul xodimi

YURIDIK XIZMAT KO'RSATISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuridik xizmat ko'rsatishning yangi bo'g'ini – Adliya vazirligi tarkibida tashkil etilgan yuridik xizmat ko'rsatish markazlarining davlat tashkilotlari faoliyatida qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlashdagi faoliyati ko'rsatib berilgan hamda Markazlar faoliyati tahlil qilinib, ularning funktsiya va vazifalari hamda tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid taklif va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: yuridik xizmat, yuridik xizmat ko'rsatish markazlari, "E-huquqshunos", huquqiy ekspertiza..

Abstract. This article describes the activities of the legal service centers established within the Ministry of Justice in ensuring legality and the rule of law in the activities of state organizations, a new link in the provision of legal services – the Centers, and analyzes the activities of the Centers, providing suggestions and conclusions on improving their functions and tasks, as well as their organizational and legal framework.

Keywords: legal services, legal service centers, "E-lawyer", legal expertise.

Аннотация. В данной статье описана деятельность нового звена юридических услуг – центров оказания юридических услуг, созданных в составе Министерства юстиции по обеспечению законности и верховенства закона в деятельности государственных организаций, а также проанализирована деятельность центров, даны предложения и заключения по совершенствованию их функций, задач и организационно-правовых основ.

Ключевые слова: юридические услуги, центры юридических услуг, «Электронный юрист», юридическая экспертиза.

Kirish

Bugungi kunda huquq ustuvorligini ta'minlashning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida yuridik xizmat institutini yangicha bosqichda tashkil etish, bu borada xorijiy davlatlar ilg'or tajribalarini o'zlashtirish bilan bog'liq masalalarning o'z echimini topishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini, ayniqsa o'rta va quyi bo'g'inda huquqiy jihatdan ta'minlash hamda ularga sifatli

va professional yuridik xizmat ko'rsatishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Muhokama va natijalar

Xususan, davlatimizda yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda taraqqiyotning asosiy yo'nalishlarini rivojlantirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF – 158-son Farmon bilan "O'zbekiston-2030" strategiyasi qabul qilindi. Mazkur strategiyaning

to'rtinchi maqsadida qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish g'oyasini qamrab olgan.

Hozirgi kunda davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ushbu tashabbusni amalga oshirish borasida qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, bu yo'nalishda bir qancha muammo hamda hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar ham uchrab turibdi.

Mazkur holatlarni bartaraf etishda davlat organlari va tashkilotlarida sifatli hamda professional yuridik xizmat ko'rsatilishini ta'minlash va tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, davlat organlari va tashkilotlarida qonun ustuvorligini ta'minlash yuridik xizmatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yuridik xizmat – tashkilotda qonunchilikka amal qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshiruvchi, shuningdek, tashkilot rahbari va uning tarkibiy bo'linmalariga qonunchilikni qo'llash bilan bog'liq masalalarda huquqiy yordam ko'rsatadigan funksional tuzilma hisoblanadi.

Shuningdek, huquqshunos olim F. Otaxonovning fikricha yuridik xizmat davlat apparatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat tashkilot yoki korxonada, balki davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruv organlarida, muassasalarida ham mavjuddir. Yuridik xizmat har doim ham bo'lim, departament yoki boshqa nomdagi tarkibiy tuzilma sifatida faoliyat yuritmaydi, shartdagi yuriskonsult ham uning funksiyalarini bajarishi mumkin.

Yuqoridagilardan keltirilgan olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, yuridik xizmat – tashkilotlar faoliyatini huquqiy ta'minlash maqsadida joriy qilinadigan mustaqil tarkibiy tuzilma yoxud lavozim hisoblanadi.

Ta'kidlash o'rinliki, davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan, amaliyot natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat organlarida yuridik xizmat faoliyatini tashkil qilish modelining salbiy jihatlari hanuzgacha saqlanib qolingan va tuman (shahar) darajasidagi ayrim tashkilotlar yuridik xizmat bilan ta'minlanmagan ham edi.

Bu kabi omillar davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati faoliyatini modernizatsiyalash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Shunga ko'ra, 2021-yildan boshlab mamlakatimizda yuridik xizmat ko'rsatishning yangicha modeli – Adliya vazirligi tarkibida yuridik xizmat ko'rsatish markazlari (keyingi o'rinlarda – Markazlar) faoliyati yo'lga qo'yildi.

Xususan, yuridik xizmat ko'rsatish markazlari – qonunchilik hujjatlari bilan yuridik xizmat ko'rsatilishi belgilangan davlat organlari va tashkilotlar faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash hamda ularga sifatli va malakali yuridik yordam ko'rsatish maqsadida adliya bo'limlari tuzilmasi va bo'ysunuvida tashkil etiladigan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tarkibiy bo'linma hisoblanadi.

Hozirda Markazlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ–5168-son qaroriga muvofiq respublika bo'yicha tuman (shahar) darajasidagi 19 turdagi 21 mingdan ortiq davlat idoralariga yuridik xizmat ko'rsatib kelinmoqda.

Jumladan, Markazlar faoliyati yo'lga qo'yilgandan buyon xizmat ko'rsatiladigan davlat idoralarining 20

mln.dan ortiq yuridik tusdagi hujjatlari Markazlarning huquqiy xulosalar asosida qabul qilindi.

Markazlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi natijasida tashkilotlarda quyidagi ijobiy natijalarga erishildi:

- Markazlar tomonidan yuridik xizmat ko'rsatilishi natijasida xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar hujjatlarining nazorat qiluvchi organlar va sud idoralari tomonidan bekor qilinishi 99,9 %ga qisqardi (2019–2021 yillarda 21 588 ta hujjatlar bekor bo'lgan);

- Xizmat ko'rsatiladigan davlat idoralarining barcha yuridik tusdagi hujjatlari loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish va qabul qilish jarayonlarini elektron shaklga o'tkazuvchi “E-huquqshunos” elektron tizimi yaratilib, tashkilotlarning ish yurituvchi to'liq raqamlashtirildi va qog'ozbozlikka barham berildi;

- Malakali va yosh huquqshunoslar o'rtasida o'zaro tajriba almashish tizimi yo'lga qo'yilib, barcha yo'nalishlardagi murakkab huquqiy muammolarni kollegial tarzda hal qilish imkoniyati yaratildi;

- Xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar faoliyatida bir xil huquqni qo'llash amaliyoti shakllandi;

- Yuridik xizmat xodimlarining to'liq mustaqilligi ta'minlanishi orqali ularni ish faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb etish holatlariga barham berildi hamda oylik ish haqi uch barobarga ko'tarildi;

- 150 ga yaqin buyruq, shartnoma va boshqa yuridik tusdagi hujjatlarning namunaviy loyihalari ishlab chiqilib tizimga joylashtirildi;

Shuningdek, Markazlarda hujjatlarni xodimlarga avtomatik tarzda barcha xodimlarga teng taqsimlash orqali korruptsiya omillari bartaraf qilindi hamda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida Markaz xodimiga uning yaqin qarindoshlariga oid hujjat loyihasi kelib tushganda o'zini-o'zi rad etish tugmasi yordamida Markazning boshqa xodimiga yo'naltirish funksiyasi yaratildi.

Bundan tashqari Markazlar tomonidan talabnoma va da'vo ishlarini yuritish orqali xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar foydasiga 50 mlrd.dan ortiq pul mablag'lari undirilgan.

Biroq, yuridik xizmat ko'rsatish sohasida, xususan, Markazlar faoliyatida hal qilinishi lozim bo'lgan ayrim kamchilik va muammolar mavjud.

Markazlar faoliyati mamlakatimizda yuridik xizmat ko'rsatishning yangi instituti sifatida tashkil qilingan bo'lib, hozirga qadar ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Bundan tashqari, Markazlar faoliyatining yanada samarali tashkil qilish, ularning qamrovini oshirish kabi jihatlardan kelib chiqib, yuridik tusdagi hujjat loyihalarining sifatli huquqiy ekspertizasini ta'minlash, Markaz xodimlarining ish hajmini maqbullashtirish kabi masalalarga echim topish hamda Markazlar tomonidan yuridik tusdagi hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertiza o'tkazish va ular yakunlari bo'yicha huquqiy xulosa berishning tartib-taomillarini belgilash lozim.

Xulosa

Yuridik xizmat ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bag'ishlangan mazkur maqolada keltirilgan mulohazalarga asoslangan holda quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

Birinchidan, qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq

xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etishda davlat organlari va tashkilotlarida sifatli hamda professional yuridik xizmat ko'rsatilishini ta'minlash va tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, kelgusida Markazlar qamrovini yanada oshirish maqsadida tuman (shahar) darajasidagi barcha davlat tashkilotlari hamda hokimliklarga malakali yuridik xizmat ko'rsatishni tashkil qilish lozim.

Uchinchidan, Markaz xodimlarining ish hajmini maqbullashtirish maqsadida “E-huquqshunos” elektron tizimida hujjat loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazishda eksterritorial tartibda hujjatlar aylanishi tizimini joriy qilish masalasini o'rganib chiqish lozim.

To'rtinchidan, “E-huquqshunos” elektron tizimida Markazlar tomonidan yuridik tusdagi hujjatlar loyihasini huquqiy ekspertizadan o'tkazishning yagona tartib-taomilini ishlab chiqish kerak.

Beshinchidan, xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar faoliyatiga oid barcha yuridik tusdagi hujjat loyihalarini “E-huquqshunos” elektron tizimida dastlab hujjatning asosiy rekvizitlarini kiritish orqali avtomatik shakllantirish imkoniyati yaratgan holda keyinchalik tizimga hozir zamon talablaridan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich sun'iy intellekt (Yurist-AI, SMART-Yurist) texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. F.X.Otaxonov. Yuridik xizmatning nazariy-huquqiy muammolari. Monografiya. – T.: 2019. B 31.

2. Titievsky A.N. Organization of legal work at enterprises. // Electronic resource. Access mode: <http://www.distance.ru>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF–158-son “O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ–5168-son “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5482934>